

Қонақ келсе, *арық* сойма,
Семизин былай қойма [5:43].

5. Ранг билдирувчи метонимиялар:

Қыз-жаўаны *қызыл-яшил* кийерлер [5:19] ва шу кабилар.

Умуман, Ажиниёз шеърятда воқеликни поэтик идроклаш ва реал баҳолаш жараёни тасаввурга мунтазам вазифадошлик юклаш – уни бойитиб бориш воситасида муайян эстетик салмок касб этган. Ваҳоланки, ички алоқани мақсадга йўналтирадиган тафаккур маърифатида тушунча ва материя моҳиятда ижодий иттифоқ ҳосил қилади. Предмет кенгайтирилган-теранлаштирилган талқини айнан

тафаккур тизимида туб эврилишлар ясаиди. Жорий ҳолат сўз маъноси кўчиш усуллари ўзига хослигидан озикланади. Шу маънода, адабий талқин ижодий анъаналар билан узвий алоқалантирилган таҳлил маданиятидан ўсиб чиқади. Мавжуд йўналиш моддият-руҳониятни англаш ҳамда англатиш босқичларидан иборат. Унда семантик майдон мураккаблашиб, тасвир ва ифода сайқал топишига замин ҳозирлайди. Ҳар бир жараён каби ижодий шарҳ ҳам доимо давомий изланиш, ташбеҳ қўллаш танлови ҳамда шартли талқин жипслашувига эътибор қаратади. Маъно кўчими ўзига хослиги шоир бадий мушоҳадаларини тўлдирувчи, аниқловчи ҳамда бойитувчи ижодий омилга эврилади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Ўзбекистондаги Ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 23 июндаги ПҚ-3080-сон қарори.
2. Ҳамидов Ҳ. Қарақалпақ тили тарийхының очерклері. –Нөкис: «Қарақалпақстан», 1974, 247-б.
3. Da'wletov A. Til bilimi tiykarlari. –No'kis: «Bilim», 2007, 108-б.
4. Әжинияз. Таңдамалы шығармалары. –Нөкис: «Қарақалпақстан», 1975.
5. Әжинияз. Мәңги мийраслар. –Нөкис: «Илим», 2014.
6. Мередов А. Ахаллы. Түркмен классыкы әдебиятының сөзлүгі. –Ашгабат: 1988. 120-б.

РЕЗЮМЕ. Мақолада қарақалпақ мумтоз адабиёти вакили Ажиниёз лирикаси тили семантик хусусиятлари ҳақида сўз юритилган. Унда шоир адабий талқинида кўп маъноли сўзлар услубий ўзига хослиги таҳлилга тортилган. Метафора ва кўп маъноли сўзлар ўзаро муносабати назарий жиҳатдан умумлаштирилган.

РЕЗЮМЕ. Статья посвящена семантическим особенностям языка произведений великого классика каракалпакской поэзии Ажинияза. Проанализированы многозначные слова. Изучены метафоры. Определены особенности использования многозначных слов, а также приведены яркие примеры.

SUMMARY. The article is devoted to semantic peculiarities of literary works of classic poet of Karakalpak literature Ajiniyaz. Polysemantic words, metaphors and metaphoric thinking were investigated. Peculiarities of using Polysemantic words were determined and there were given good examples of metaphors.

SO'Z BIRIKMALARINI NUTQIY VA LISONIY SATHLARDA O'RGANISHNING NAZARIY- METODIK ASOSLARI

*A.Madaminov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat unuversiteti*

Tayanch so'zlar: formal, formal-funksional, semantic, substansial, turk-fransuz varianti, jadidlar, sho'rolar davri, sistem-struktur, til, me'yor, nutq, paradigmatic, sintagmatik munosabatlar.

Ключевые слова: формальный, формально-функциональный, семантический, субстанциальный, турецко-французский вариант, джадиды, системно-структурная, язык, норма, речь, парадигматические, синтагматические отношения.

Key words: formal, formal-functional, semantic, substantial, Turkish-French version, Jadids, systemic-structural, language, norm, speech, paradigmatic, syntagmatic relations.

XX asr boshlarida shakllangan o'zbek tilshunosligi hozirgacha shakliy (formal), mazmuniy (semantik), substansial (formal - funksional) yo'nalishlarda taraqqiy etdi. Demak, o'zbek tilshunosligining bosib o'tgan yo'lini quyidagi ikki davrga ajratib o'rganish mumkin: 1) Sho'rolar davri; 2) Mustaqillik davri kabi.

Birinchi bosqich (1910-1930 yillar) jadidlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib ular o'zbek tilshunosligiga formal yo'nalishning turk-fransuz variantini olib kirdilar. Bu yo'nalish targ'ibotchilari sifatida A.Avloniy, Behbudiy, Botu, Zohiriy, A.Fitrat, Elbek, Qayum Ramazon kabi ma'rifatparvarlarini ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, professor A.Fitrat tomonidan ilk bor o'zbek tilining "Sarf"(morfologiya) va "Nahv"(sintaksis) nomli ikki qismdan iborat darsliklarining yaratilishi katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi [13] Chunki, A.Fitratning bu asarlarida formal yo'nalishdagi o'zbek tili grammatikasining ilk namunalari yaratilgan edi.Unda asosiy sintaktik birliklardan so'z birikmalari va gap haqida dastlabki nazariy ma'lumotlar beriladi. Bu asar haqida professor A.Nurmanov: "Hali o'zbek tili sintaksisining mundariyasi belgilanmagan, sintaktik tushunchalarni ifodalovchi atamalar tizimi izga solinmagan bir davrda mazkur asarning vujudga kelishi o'zbek tilshunosligi tarixi uchun katta voqea edi", - deb ta'kidlaydi [8:155]. Haqiqatan ham o'zbek tili sintaksisining ilk namunalari o'sha asrlarda yaratilgan edi. Keyinchalik, 1933 yili H.Qayumiy va S.Dolimovlar ikki qismdan iborat "Grammatika" o'quv qo'llanmasini yozib uning ikkinchi qismini "Nahv"(sintaksis) deb ataydilar [8:203].

Formal yo'nalishning ikkinchi davri rus tilshunosligi andozalari asosidagi o'zbek tili grammatikasini shakllantirishga qaratiladi. Dastlab bu yo'nalish yetuk

tilshunos olimlarimizdan professor A.G'ulomov, A.Borovkov, A.Kononov, U.Tursunovlar tomonidan boshlab berildi. Natijada, A.G'ulomovning 1942-yili lotin grafikasida "O'zbek tilida aniqlovchilar" nomli qo'llanmasi, keyinchalik, 1955-yili "So'z tartibi" va "Sodda gap" sintaksisiga oid asarlari yuzaga kela boshladi [11]. Natijada mashhur turkshunos olim professor A.N.Kononov tomonidan 1948-yili "O'zbek tili grammatikasi" rus tilida nashr qilindi [3]. Shuningdek, 1950-70-yillarda professor G'Abdurahmanov, F.Abdullayev, I.Rasulov, A.Sayfullayev, F.Ubayeva va boshqa olimlarning o'zbek tili sintaktik qurilishiga doir tadqiqotlari yuzaga kela boshladi. Yo'qoridagi olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirgan holda, 1965 yili professor A.G'ulomov va M. Asqarotvirlar tomonidan Oliy o'quv yurtlari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi yaratildi [12:8:204]

XX asrning 70-80 yillari professor F. Abdullayev, M.K. Sharipov, A.Safayev, H.Abdullayev, A.Koklyanova, Komilova X, X.Xolyarov, F.Ibrahimo, B.To'yichibayev, N.Bazarbayev, A.Madaminovlar tomonidan sodda va murakkab so'z birikmalarining nazariy masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi [5:29-32]. Mazkur ilmiy tadqiqotlarning metodologik asosini rus tilshunoslaridan akademik V.V.Vinogradov, F.F.Fortunatov, A.M.Peshkovskiy kabi olimlar tomonidan shakllantirilgan formal-funksional tilshunoslik tashkil etadi [2]. Natijada, o'zbek tilidagi so'z birikmalari sintaksisi formal yo'nalishda nazariy jihatdan chuqur o'rganildi.Jumladan, so'z birikmalari barcha turkiy tillar kabi o'zbek tilida ham formal funksional tomondan quyidagicha tasnif qilina boshladi:So'z birikmalari tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab; hokim bo'lagining ifodalanishi jihatidan ot(keng ma'noda) va fe'lli; sintaktik aloqasi usuliga ko'ra -

moslashuv, boshqaruv, bitishuvli; sintaktik munosabati jihatidan - aniqlovchili, to'ldiruvchili va holli birikmalarga ajratildi. Aslida, bu formal tahlilga asoslangan tilshunoslik keyinchalik shakllangan barcha yo'nalishlar uchun poydevor vazifasini bajarib kelmoqda. Chunki, an'anaviy formal sintaksisda bevosita kuzatishda berilgan, nutqiy hosilalar o'rganilib kelingan bo'lsa, keyinchalik mazmuniy yondashuvga asoslangan semantik sintaksis kirib kelishi bilan ularning semantik doirasini o'rganishga keng yo'l ochildi. Natijada, Istiqloldan keyingi davrda sintaktik birliklarning semantik jihatdan o'rganilishi tufayli so'z birikmalari valentligini aniqlashga keng yo'l ochildi. Bu haqida professor R. Sayfullayeva: "Ma'naviy yondashuv mohiyatan til sintaktik qurilishi va uning asosiy birliklarini qandaydir yangicha bir usul bilan ajratish, tasnif-u tavsiflash emas, ma'lum bir usul bilan ajratilgan, tasnif etilgan sintaktik birlikning mazmun tomonini formal mantiqning nominatsiya va propozitsiya haqidagi ta'limoti asosida sistema sifatida tahlil etish hamda bunday birliklarning kommunikativ-informativ qiymatini aniqlashga qaratilgan. Shuning uchun u istagan turdagi sintaktik tahlil va tavsif ustiga ustqurma sifatida qo'yilishi va tatbiq etilishi mumkin," deb, hisoblaydi [10:6-7].

Ma'lumki, istiqldan keyingi davrda o'zbek tilshunosligi taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Chunki, ilgari formal tahlil yo'nalishlari takomillashib, sistem - struktur va substansial yo'nalishlar asosida o'zbek tili taraqqiyotining yangi qirralari ochildi. Masalan, ilgari formal-funksional tilshunoslikda sintaktik birliklar nutqiy va lisoniy sathlarda o'zaro farqlanmasdan o'rganib kelingan bo'lsa, Mustaqillikdan keyin ular bir-biridan ajratilib alohida tahlil qilina boshladi. Boshqacha aytganda, sistem tilshunoslikda til va nutq oppozitsiya ta'sirida nutqiy faoliyat lison, so'zlashuv qobiliyati va nutqqa ajratildi. Nutq esa tilning mavjud imkoniyatlaridan foydalangan holda ma'lum bir kommunikatsiya jarayonida yuzaga keladigan hodisa ekanligi aniqlandi. Demak, til va nutq o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda tizim sifatida "til-me'yor-nutq" zanjiri asosida namoyon bo'lishi ko'rsatiladi. Professor H. Ne'matov va O. Bozorovlar "Til va nutq" nomli asarida nutq faoliyatini uchta qismga ajratadilar: a) til; b) so'zlash qobiliyati - tildan foydalanish qobiliyati va malakasi; d) nutq. Keyinchalik nashr qilingan ishlarida esa ular nutq jarayoni "til - me'yor - nutq" dixatomiyasidan tashkil topishi ko'rsatiladi [7:8]. Haqiqatan ham, til kommunikativ jarayonda aloqa-aralashuv vositasini bajarishi bilan birga uning lisoniy va nutqiy tomonlarini ham farqlashimiz kerak. Mana shu kabi holatlardan kelib chiqib til va nutq birliklari bir-biridan farqlanadi. Lekin uning nutqda namoyon bo'lishi har kimning qobiliyati va mahorati bilan bog'liq bo'ladi. Til mohiyati e'tibori bilan tizim hisoblanar ekan, bu tizimni tashkil etuvchi birliklar orasida muayyan munosabatlar mavjud. Ma'lumki, lisoniy birliklar orasida asosan uch xil: paradigmatic (o'xshashlik), ierarxik (pog'onali) va sintagmatik (qo'shnichilik) munosabatlari keng qo'llaniladi. Demak, til birliklari paradigmatic, nutq birliklari esa sintagmatik munosabatda yashaydi. F. de Sossyur talqiniga ko'ra, nutqdan xoli bo'lgan til birliklari kishi xotirasida turli-tuman sistem munosabatlarda yashaydilar va bu sistem munosabatlarni tashkil etuvchilar orasidagi bog'lanish paradigmatic bog'lanish deyiladi [6:11-43].

Hozirgacha o'zbek tilshunosligida fonema, leksema, morfemalar orasidagi paradigmatic munosabatlar atroflicha

o'rganildi. SBlari paradigmasi haqidagi qarashlar prof. N. Mahmudov, A. Nurmonovlarning "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" va professor H. Ne'matov, A. Berdaliyev, R. Sayfullayeva, B. Mengliyev va boshqalar tomonidan yaratilgan darslik va qo'llanmalarida atroflicha yoritildi [9]. Shuningdek, so'z birikmasi lisoniy qurilishidagi paradigmatic munosabatlari S.A. Nazarovaning "So'z birikmasi sintaksisi substansial talqinda" nomli risolasi alohida bayon qilinadi va so'z birikmalari lisoniy sintaktik qoliplaridagi paradigmalarini aniqlash muammosi o'zbek substansial tilshunosligida to'la o'z yechimini topmasdan qolib kelayotganligini qayd qiladi. Mana shu jihatlarni hisobga olgan holda u mazkur asarida turli nutqiy va sintaktik ma'nolarni ifodalovchi so'z birikmalarining bir qismini tashkil etgan obyekt(to'ldiruvchi)li birikmalarining lisoniy sintaktik qoliplari paradigmalarini aniqlashga erishgan [6].

Til va nutqning o'zaro munosabatiga kelsak, til barcha o'zbekcha gapiruvchilar uchun mavhum holdagi o'zgarmas miqdor, nutq esa har bir shaxs yaratadigan kommunikativ qurilma sanaladi. Buni amalga oshirish uchun gapiruvchining saviyasi, bilimi, tildan foydalanish mahorati muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, til kishilarning fikrlash quroli sifatida xizmat qiladigan murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, uning lison va nutq tomonining farqlanishi tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Lison - miyaning til xotirasi qismida mavjud, o'ziga xos belgi-xususiyatlarga, qiymatga ega, o'zaro ma'lum munosabatlar hosil qiluvchi til hodisalaridan va bu til hodisalarini ishlatish qoidalaridan iborat bo'ladi. Nutq lisonda mavjud ana shu ramzlar majmuasidagi ma'lumotlardan foydalanish jarayonining hosilasidir. Demak, lisoniy sintaktik birliklar umumiy bo'lib, ulardan foydalanish, ta'sirchan va ibratli nutq yaratish esa har bir shaxsning mahorati va qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Bu haqida Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asarida quyidagi qimmatli fikrlar keltiriladi: A. Navoiy so'zni durga o'xshatadi. Durning joylashish o'rni dengiz tagida bo'lsa, so'zning joylashish o'rni ko'ngil to'ridadir, deydi. Xuddi durlar g'avvos yordamida dengiz tubidan tashqariga chiqarilib jilvalantirilgani kabi inson ham o'z ko'ngil to'rida imkoniyat tarzida yotgan so'zlarni nutqiga chiqarib, g'avvos kabi jilvalantira olishi lozim, dedi. [1:175]. Demak, Alisher Navoiy F. de Sossyurdan ikki asr ilgari til va nutqni farqlaganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, F. de Sossyur til va nutq munosabatini shatranj o'yiniga taqqoslasa, A. Navoiy dengiz qa'rida harakatsiz yotgan dur va uni harakatga keltiruvchi g'avvos mahoratiga qiyoslaydi. Demak, til faqat insongagina ato qilingan oliy ne'mat bo'lib, undan samarali foydalanish, qay darajada ta'sirchan va ravon nutq yaratish har bir shaxsning bilim saviyasi va intellektual salohiyatiga bog'liqdir. Mana shu kabi muhim tomonlaridan kelib chiqib hozir o'rta maktablar uchun yaratilayotgan ona tili darsliklarining metodologik asoslarini nutq o'stirish mashqlari tashkil etmoqda. Chunki, hozir jamiyatimizga erkin fikrlaydigan, o'z fikr mahsulini o'zbek adabiy tilida to'g'ri va ravon bayon qila oladigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Xullas, til imkoniyat hisoblanib, nutq oqimida ketma-ket keladigan paradigmatic va sintagmatik munosabatlar orqali namunali nutq hosil qilinadi.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий: Танланган асарлар. 3-жилд. 1948 175-6.
2. Виноградов В.В. Исследования русской грамматики. - М.: «Наука», 1975.
3. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.-Л.: 1960.
4. Madvaliyev A. Odilov Y. O'zbek tilshunosligi mustaqillik yillarida. O'zbek tili va adabiyoti, 2016, №4. 47-53-b.
5. Madaminov A. So'z birikmalari sintaksisini o'rganishning taraqqiyot bosqichlari. - Toshkent: Poytaxt exclusive. 2021. 147-b.
6. Назарова С.А. Ўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талкинда. -Тошкент: "Фан", 2015. 111-b.
7. Нейматов Х. Тил ва нутқ. -Тошкент: 1993.
8. Нурманов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. -Тошкент: "Ўзбекистон", 2002.

9. Sayfullayeva R., Mengliyev B.R va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: «Fan va texnologiyalar», 2010.
10. Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning substansial (zotiy) talqini. -Toshkent: «Fan», 2007. 256-b.
11. Fuломov A. Sodda gap. Hozirgi zamon ўzbek tili kursidan materiallar. –Toshkent: 1955.
12. Fuломov A. Askarova M. Hozirgi zamon ўzbek tili. Sintaksis. –Toshkent: 1965.
13. Fitrat A. O'zbek tili qoidalarini to'g'risida bir tajriba. Nahv: O'z davnashr, 4-nashr, -Samarkand – Toshkent: 1930.

REZYUME. Maqolada o'zbek tilshunosligiga jiddilar tomonidan formal yo'nalishning turk-fransuz variantining tadbiriq etilishi, keyinchalik uning Sho'rolar va Mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti o'rganiladi. Ayniqsa, Istiqldan keyin sistem-struktur va substansial yo'nalishlarning kirib kelishi natijasida nutqiy va lisoniy sathlaridagi taraqqiyoti alohida yoritiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается применение современниками турецко-французского варианта формального подхода к узбекскому языкознанию, а затем его развитие в годы Советов и Независимости. Особенно после обретения независимости, в результате внедрения системно-структурного и содержательного направлений, развитие речевого и языкового уровней выделяется отдельно.

SUMMARY. The article examines the use by contemporaries of the Turkish-French version of the formal approach to Uzbek linguistics, and then its development during the years of the Soviets and Independence. Especially after gaining independence, as a result of the introduction of system-structural and content areas, the development of speech and language levels is highlighted separately.

QARAQALPAQ TILINDE BALÍQSHÍLÍQ TARAWÍ TERMINLERINIŇ LEKSIKA-GRAMMATIKALÍQ QURÍLÍSI HÁM SEMANTIKALÍQ MÁNISI

S.G.Nuranova – tayanish doktorant

Berdaq atindaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Tayanch so'zlar: qoraqalpoq tili, kasbiy so'zlar, baliqchilik, zoonim, frazeologiya, tasviriy uslub.

Ключевые слова: каракалпакский язык, профессиональные слова, рыбная ловля, зооним, фразеология, описательный стиль.

Key words: the karakalpak language, professional words, fishing, zoonym, phraseology, descriptive style.

Hár qanday xalıq tilin turmıslıq tarawlardagı kásiplik sózler quraydı. Elimiz gárezsizlikke eriskeli hárbir salaǵa ayrıqsha itibar qaratılmaqta. Solardıń qatarında ana tilimiz bolǵan qaraqalpaq tiliniń izertleniwinde salmaqılı ilimiy izertlew jumislari alıp barılıp atır. Ótken ásirde qaraqalpaq tilin izertlewshi tanıqlı tyurkolog alımlardan N.A.Baskakov, S.E.Malov, E.D.Polivanovlar, tilshi ilimpazlardan D.S.Nasirov, O.Dospanov, T.Begjanov, H.Hamidov, E.Berdimuratov, A.Dáwletov, D.Saytov, J.Eshbaev kibi h.t. basqada alımlardıń ilimiy izertlew miynetleri búgingi kúndegi tilshi izertlewshiler ushın salmaqılı derekler bolıp xızmet etpekte. Abdinazimov Sh. “Qaraqalpaq tili tariyxı” [1:9] boyınsha lekciya tekstlerinde milliy tilimizdiń payda bolıwı boyınsha keńnen maǵlıwmatlar berilgen. Onda belgili nemec tyurkologı Genrix Yulius Klaprot óziniń “Aziya kóp tilliligi” miynetinde, qaraqalpaqlar burın Kazan menen Astraxan aralıǵında, Edil dáryasınıń boyında eski Bulgar qalasına jaqın jerde jasaǵan, keyin Aral teńizi jaǵalawlarına qaray kóship Sırdárya hám Quwandárya aralıǵında jasadı, tili jaǵınan túrkiy tilleri semyasına kiredi – dep maǵlıwmat beredi.

Tildiń leksikologiyasınıń bayıwında frazeologizmler qurarı anıq, olar xalıqtıń ózine tán ózgeshelegine bola jasaladı. B.Yusupovaniń “Qaraqalpaq tiliniń frazeologiyası” [6:30-31] oqıw qollanba kitabında frazeologizmlerdiń úyrenilw tariyxı haqqında aytiladı. Onda qaraqalpaq tiliniń frazeologiyası boyınsha búginge kúnde deyin az izertlengenligin ayıp ótip, E.Berdimuratov tildi leksika jaǵınan, A.Bekbergenov frazeologizmlerdiń stillik qollanıwın, J.Eshbaev qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligin, T.Jumamuratov mektep oqıwshıları ushın russha-qaraqalpaqsha frazeologiyalıq sózlik jazǵanlıǵın, qaraqalpaqsha-russha sózlikte frazeologizmlerdiń beriliwın S.Nawrızbayeva, eki komponentli frazeologizmlerdi G.Aynazarova arnawlı izertlegenligin jazadı. Sonday-aq, Q.Qoshanov avtorlıǵında qısqasha russha-qaraqalpaqsha frazeologiyalıq sózligi, Q.Paxratdinov hám Q.Bekniyazov tárepinen qaraqalpaq tiliniń frazeologiyası boyınsha sózlik tayarlanıp, basılıp shıqqan.

S.Shinnazarovaniń “Qaraqalpaqstanıń Qanlıkólm aymaǵındaǵı qaraqalpaqlardıń sóylew tili ózgeshelikleri” [5:38, 43, 46, 61, 91] atamasındaǵı dissertaciya jumısında aymaqlıq jaylasıwı jaǵınan arqa dialektinde sóylesiwshi rayonlardan bolǵan Qanlıkólm rayonındaǵı kóp ǵana sóylemlerdi ayıp ótedi. Solardıń ishinde baliqshılıqqa tiyisli govorlarda ushırasadı. Misalı: *shań* – rus tilindegi brezend hám “girt, shań, tozań” mánilerin ańlatadı. Sonday-

aq, baliqtı duzlawǵa arnalǵan kólemi úlken ıdıs; *samuray* – tuwra mánisi “bekireden aynıǵan baliqtıń túri”, awıspalı mánisi shaqqan hám sumlıǵı basım adam; *ót qaqpaw* – dem bolmaw, oylaǵan nátiye bolmaw; *ıs* – qaq baliq, qaqpash baliq; Baliqtıń *jasın*, *quwın* bárin tiyeymiz – ádebiy tilde kishisi-úlkeni degendi ańlatadı. *Mardan* – ádebiy tilde baliqshılıqqa baylanıslı leksemalardıń mánilik toparına kiredi. Al Qanlıkólm rayoni qaraqalpaqları sóyleminde “*kewilli*, *zawıqlı*” konnotativlik semaların bildiredi.

Ye. Iskenderovaniń “Qaraqalpaq tilindegi zoonimlerdiń lingvómádeniy analizi” [2:129-130] atlı dissertaciya jumısında adamdı sıpatlaytuǵın zoonimlerdi haywanlardı túr-toparlardı ajratıp qunlı maǵlıwmatlardı keltiredi. Ázelden baliqshılıq, ańshılıq, shárwashılıq hám diyqanshılıq penen kún kórip kiyatırǵan qaraqalpaq xalıqı ádebiy hám awızeki xalıq tilinde zoonimgerge oǵada bay. Quramında zoonimler bolǵan teńewlerdiń ishinde baliqlardı qatnaslıları da olardıń belgili bólegin quraydı. Qaraqalpaq xalıqınıń ásirler dawamında mádeniy-ruwxıy turmısı, kún keshiriwı suw obyektleri menen, suwda jasawshı haywanlarǵa da qatnaslı. Ye. Iskenderovaniń jumısında tómendegi zoonimler keltirilgen: baliqtay – gápinde turmaytuǵın, háreketseń adam; *baliq kóz* – naǵıs atı; *shortanday ańqılda* – maqtawǵa, marapatqa tez iseniwsheńlikti; *alabuǵaday tiriyiw* – menmensiw, maqtanshaq, *qarmaqqa túsken baliqtay* – ilajsızlıq, sharasız halat adamnıń mashqalalardan jol tapıp shıǵıp kete alması; *sazan baliqtay semiriw* – adamnıń birden tolısıp semiriwı; *qirt-qirt shabaqtay* – kishkene elespes nárseler; *baliqtay tuwlaw* – kónbew, qarsılıq kórsetiw; *baliq suwǵa kirgendey* – kelisimge keliw, álpi alısıw, awızbirshilikli háreket; *baliqtay awzın ashıw* – baliq qırǵa shıqqanda shóllep qattı-qattı awzın asha beriw háreketi, jas balalardıń awqatqa kewilli bolıp, ata-anasınıń tapqan tabısı menen kún kóriwı, basqalardıń arqasınan kúneltiw; *baliqtıń qabırshaǵında* – názerińdi tartatuǵın juqa, jiltıraq kiyim-kenshek; mánisin ańlatıwda qollanıladı.

Qaraqalpaq tilin izertlewde tilshi alımlar, izertlewshiler onı hár qıylı tarawlarda izertleydi. Til hám ádebiyat bir-birin tolıqtırıwshı, qandayda bir mashqalalı temani izertlegende kórkem ádebiy shıǵarmalar áhmiyetli derekler bolıp xızmet etedi. Belgili dramaturg hám jurnalist jazıwshı, Qaraqalpaqstanǵa miyneti sińgen kórkem óner ǵayratkeri Qıpshaqbay Matmuratovtıń “Terbenbes” romanında ótken ásir baslarındaǵı óziniń sawdagershilik hám isbilermenlik uqıbı arqalı xalıqtıń baxtı-ıǵbalı ushın kúyip-janıp xızmet etken tariyxıy tulǵa, qaraqalpaqlardıń ishinen shıqqan tungısh kapitalist dárejesindegi Lepes baydıń ómir jolı haqqında sóz etiledi. Romandaǵı